

BOSHLANG'ICH SINFLARDA HARAKAT SEMALI LEKSEMALARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI VA O'RGATISHNING INTERFAOL USULLARI

Ne'matova Mahfuza Ma'rufjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Harakatni bildirgan leksemalar, fe'l, leksema, sema, lingvistik xususiyatlar, fe'l zamonlari, leksik ma'no.

Annotatsiya

Ushbu maqolada harakat semali leksemalarning boshlang'ich sinflarda o'rganilishi, ularning ahamiyati hamda fe'l mavzusini o'rganishda yengillik yaratish uchun bir necha metodlardan foydalanish mumkinligi yoritilgan. Shuningdek, fe'l so'z turkumi o'quvchining asosiy lug'at boyligini qamrab olganligi va nutqimizda eng ko'p ishlatiladigan so'zlar aynan harakatga oid so'zlar ekanligi haqida fikr yuritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Boshlang'ich sinflarda "Fe'l" mavzusi ilk davrlardan boshlab o'tiladi.

Mazkur mavzuga sinfdagi (so'zlarning ma'nosi) mavzusida to'xtalgan, mazkur mavzuga jami 1-sinf ona tili kitobida 23 soat ajratilgan bo'lib, bunda qo'yilgan bilim ko'nikma va malakalar quyidagilarni tashkil qiladi.

O'quv yilining yakunlanuvchi kuniga kelib boshlang'ich sinf o'quvchisi quyidagilarni bilishi kerak hisoblanadi. So'zlarning ma'nolariga ko'ra guruhlanishi ko'nikmalarni egallashi shartdir.

Fikr bayonida adabiy tilda faol qatnashadigan fe'llardan foydalanish Imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

2 – sinfga kelib esa "Fe'l" mavzusi xuddi 1 – sinfdagidek so'z mavzusi sifatida torroq o'tiladi. Bu mavzuga 2 – sinfdagi ona tili kitobidan 54 soat ajratilgan hisoblanadi.

Yosh boshlang'ich o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yilgan talablar quyidagilar:

So'zlar yordamida gap tuzish va yozilishni, berilgan mavzuga doir gap tuza olishni, qayta hikoya qila olishni eplay olishi kerak.

Bundan tashqari boshlang'ich sinfdagi bilag'onlar quyidagilarni uddalay olishi shart.

So'zni, gapni va matnni, harflarni tushirib qoldirmay, ortiqchasini qo'shmay, o'rnini almashtirmay husni xat qoidalariga rioya qilgan holda o'qishni va eshitgan jumllarini to'g'ri yozishni bilishi qat'iy talab qilinadi.

4 – 5 bo'g'inli so'zlarning bir yo'lga sig'may qolgan qismini keyingi yo'lga bo'g'inlarga ajratgan holda ko'chirishni bilishi kerak,

fe'l mavzusiga oid 2 – 3 gap tuza olish, mazmunini idrok etishi va uni yozilishini bilishi talab qilinadi;

rasmlar asosida 5 – 6 fe'l qatnashgan gap tuza olish uni tushuntirishi va uni yozishni bilishi ham kerak;

Ana endi 3- sinfdagi harakat bildiruvchi leksemalar "so'z turkumlari" sifatida o'rgatilib, o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar quyidagilarga o'zgartiriladi.

fe'l bo'lishli va bo'lishsiz fe'llardan tashkil topishi va uni qanday hosil qilinishi, fe'l yasovchi qo'shimchalarni, ular qatnashgan fe'llar yasama fe'llar bo'lishini bilishlari kerak.

- ma bo'lishsizlik fe'l hosil qiluvchi qo'shimchalarni to'g'ri yoza olishni, so'z yasovchi qo'shimchalarni qatnashtirib fe'l turkumini yasay olish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Fe'l mavzusi doirasida 5 – 6 gapli bo'lganishli nutq tuza olishi va ma'lum tayyorgarlikdan so'ng uni eslab qolib yoza olishi kerak.

Nutq madaniyatini og'zaki va yozma nutqda fe'l so'z turkumiga tegishli bo'lgan sojumlarni to'g'ri ifodalashni o'rganishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi 4 – sinfga kelib “Fe'l” mavzusini jami 28 soat o'rganib chiqadi, bunda o'quvchining, ko'nikma va malakasiga qo'yilgan talablar quyidagichadir, vaqt o'tishi bilan talablar ham murakkablashib boradi.

- So'z turkumlarini farqlab, ularning belgilarini ajratish ko'nikmalarni egallashi shart.
- fe'lni so'z tirkumi sifatida , fe'l zamonlarini (o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon) ekanligi tushunchasi bo'lishi shart
- fe'l zamon qo'shimchalari, ularning yozilishi va talaffuzi hamda ularning imlosini farqlashi zarur.
- fe'lning tuslanishi, tuslovchi qo'shimchalar qaysi ekanligi
- fe'llarning 3 zamon va ularning hosil qilinishi, shaxs – sonning qaznday shakllari borligini bilishi kerak.
- gaplarning har bitta qatnashgan elementarini sintaktik tahlil qilishi lozim;
- o'rganilgan qoidalarga oid 80 – 90 so'zli matnni husni xat qoidalariga rioya qilgan holda ko'chirib va diktant shaklida eshitib yoza olishi shart;
- berilgan matnga mustaqil reja tuzish, qayta hikoyalash, gapirib berish va yozma bayon qilishi.
- berilgan mavzu yoki rasmg kia qarab sarlavha tuza olishni, matn tuzib, yoza olishni bilishi kerak

Fe'l zamonlari ularning gapdagi vazifasini o'rganishi tahlil; qila olishi talab qilinadi.

Fe'llar shaxs – son qo'shimchalarini qabul qilib tuslanadi. Tillarning shaxs – son qo'shimchalari bilan o'zgarishi tuslanish deb tarflanadi. Masalan, o'qdim o'qiyapmiz, o'qiding, o'qiyapman, o'qiyapti, o'qidingiz.

Fe'llaridagi aynan ega bilan moslovchi ko'rsatilgan qo'shimchalar shaxs – son qo'shimchalari (tuslovchi qo'shimchalar) dir¹.

Fe'llarda uch shaxs – son (I shaxs, II shaxs, III shaxs) va 2 son (birlik va ko'plik) bor. Ular so'zlovchi, tinglovchi, o'zga sifatida talqin qilinadi. Fe'ldagi har bir tuslovchi qo'shimcha ham shaxs, ham sonni birlik va ko'plikda ko'rsatadi. Masalan, bordim m fe'lidagi – m qo'shimchasi I shaxs birlikni, boryapsan fe'ldagi – san qo'shimchasi II shaxs birlikni ko'rsatuvchi shaxs – son qo'shimchalari guruhiga kiradi.

Shaxslar doimo

Birlik va Ko'plikda beriladi.

I shaxs - m: bordim - k: bordik

- man: bormoqchiman – miz: bormoqchimiz

II shaxs - ng: bording - ngiz: bordingiz

- san: bormoqchisan. - siz: bormoqchisiz

III shaxs(maxsus qo'shimchaga ega emas) - bordi - (lar) bordilar

Shaxs-son qo'shimchlari fe'l asosiga qo'shilayotgan zamonga qarab qo'shiladi.

Masalan: bordi fe'li -di o'tgan zamon qo'shimchasi olgani uchun unga -m shaxs-son qo'shimchasi qo'shiladi.

O'qiy fe'lga esa -man shaxs-son qo'shimchasi qo'shiladi bunga sabab bu fe'lning -y kelasi zamon qo'shimchasini olib kelayotganligi sababli hisoblanadi.

¹ Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Morfologiya), T., 2008. 45-b

Fe'llarda uch zamondan tashkil topgan².

1. o'tgan zamon (yakunlangan ish harakatni)
2. hozirgi zamon (sodir bo'layotgan ish harakatni)
3. kelasi zamon (rejalashtirilgan harakatni)

Fe'l zamoni nutq so'zlanib turgan vaqt (payt) ga nisbatan belgilanadi.

Masalan: bordim, borgansan, harakatning nutq so'zlanib turgan vaqtdan oldin bajarilganligini bildiradi, shuning uchun ular o'tgan zamon fe'li deb ataladi: boryapman, bormoqdaman fe'llari harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotganini bildiradi, shuning uchun bu fe'llar hozirgi zamon fe'li deb ataladi; bormoqchisan, bormoqchiman fe'llari harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilishini bildiradi, shuning uchun ular kelasi zamon shaklidagi fe'llar deb aytiladi.

Fe'llarda zamon ma'nosi maxsus qo'shimchalar vositasida ifodalanadi. Fe'lga qo'shiladigan – di, - gan,-ib - yapti, - moqda, - moqchi, -a,-ajak, -ur, gay, gusi qo'shimchalari zamon qo'shimchalaridir. Zamon qo'shimchalari har doim fe'lga tuslovchi (shaxs - son) qo'shimchalardan oldin qo'shiladi.

Hozirgi zamon fe'llari nima qilyapti? so'rog'iga javob bo'ladi, hozirning o'zida, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtda bajarilayotgan harakatni ifodalaydi;

O'tgan zamon fe'li nima qildi? so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning oldin, ya'ni nutq so'zlayotgan vaqtdan oldin bajarilganini ko'rsatadi;

Kelasi zamon fe'li nima qilmoqchi? so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning keyin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan keyin bajarilishini bildiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari fe'l zamonlarini unga beriladigan so'roqdan bilib oladilar. So'roqdan uning leksik va grammatik ma'nosi ham bilinib turadi.

Fe'lning zamon formasini yasash va bilib olish uchun o'quvchilarni so'roqlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maqsadga erishish uchun avval o'quvchilarga tushuntiriladi keyin o'quvchilar e'tibori so'roq bilan fe'l zamonining bog'lanishini bajaruvchisi kim ekanligini aniqlashga qaratiladi. Zamon shaklini hosil qilish uchun fe'lning II shaxs birlik formasi mmisol qilib olinadi. Boshlang'ich sinflarda fe'lning bosh formasi chuqur o'rganilmaydi. Fe'lga so'roq berish bilangina fe'l zamoni hosil qilinadi.

Bir fe'ldan uch zamoni hosil qilib, ularni taqqoslash mashqi fe'lning zamon kategoriyasining mohiyatini tushunishga ko'maklashadi. Shuning uchun "Fe'l" mavzusini o'rganish jarayonida fe'lni zamon qo'shimchasi bilan o'rgatish mashqi muntazam o'tkazib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Fe'llar shaxs – son qo'shimchalarini olib tuslanadi. Shaxs – son qo'shimchalari har doim zamon qo'shimchalaridan so'ng qo'shiladi, buning istisno holatlari mavjud emas.

Fe'llarda shaxs – son haqidagi ko'nikmani shakllantirish uchun mazmuniga mos shaxs – son qo'shimchalarini qo'yish, berilgan fe'llarni hozirgi, o'tgan, kelasi zamonda shaxs – son qo'shimchasi bilan tushlash, fe'llarni so'z turkumi jixatidan tashkil qilish mashqlaridan dars jarayonida foydalaniladi.

Fe'l mavzusini o'rganish jarayonida quyidagi mashq turlaridan foydalanish mumkin va samarali hisoblanadi:

Quyidagi so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlardan gap tuzish: Kim? Qayerda? Nima qildi? (bolala tog'da dam oldilar.)

Nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos so'zni qo'yib o'qing va yozing. O'quvchilar berilgan yaqin ma'noli sinonim fe'llardan mosini tanlaydilar. Masalan, biz bog'da ... (aylanmoq, sayr etmoq) Bunday mashqlar sinonim fe'llarni ma'no kontekstiga qarab farqlashga o'rgatadi, va uslublarning farqini ko'rsatib beradi.

Qarama – qarshi ma'noli antonim fe'llarni topib gaplarni to'ldiring.

Masalan, birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.

Nuqtalar o'rniga maqolning mazmuniga mos bo'lishsiz yoki bo'lishli fe'llarni topib yozing. (mehnatdan ..., mehnatdan qo'rq) (gap bilan ..., ish bilan shosh).

² Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Morfologiya), T., 2008. 49-b

3- sinfda o'quvchilarga fe'llarning shaxs- son qo'shimchalari bilan tuslanishi, fe'l zamonlari, qo'shma, juft, sodda fe'llar haqida bilim beriladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tgan 1,2,3 va 4-sinflardagi harakat bildiruvchi so'zlar ya'ni fe'l mavzusi bolalarga interfaol usullar vametodlardan foydalanib o'rgatilsa darsning samaradorligi,aniqligi oshadi hamda bola uchun zerikarli bo'lmaydi.Endi interfaol metodlarning qandaynturlaridan foydalanilsa bola uchun samarali bo'lishi va bunday metodlarning turlari bilan tanishamiz.

Interfaol metodlarga asoslangan mashg'ulotlarda o'quvchi butun dars jarayoni davomida ishtirok etadi. Shu sababdan, o'quvchining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli darajada o'quvchining ishtiroki va amaliyoti mavjud bo'ladi.

O'quvchi markazda bo'lishi nazarda tutilgan o'quv jarayonini tashkillashtirish bir qator afzalliklarni yuzaga keltirib chiqaradi va bunda interfaol metodlar ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" – Toshkent 2017. "O'zbekiston"
2. <http://hozir.org/nutq-kamchiliklarini-aniqlash-va-tekshirish-metodikasi.html.uz>
3. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D., 4-sinf Ona tili. Darslik – Toshkent, 2017.
4. Valijonovna, K. I., & Askaraliyevna, U. M. (2021). Use of Modern Information Technologies in Literacy Classes. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 268-273.
5. ХОЛДАРОВА, И. В. (2021). ХАЛҚ ТОПИШМОҚЛАРИ ВА ГЕНЕРАТИВ ЛЕКСЕМАЛАР. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
6. Valijonovna, K. I., & Askaraliyevna, U. M. (2021). Use of Modern Information Technologies in Literacy Classes. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 268-273.
7. Zokirov, M. T., & Zokirova, S. M. (2020). Contrastic analysis at the phonetic level. *Academic Leadership (Online Journal)*, 21(05), 163-169.
8. Zokirova, S. M. (2021). FORMATION OF CREATIVE LITERACY IN MODERN YOUTH AND THE VALUE OF MNEMONIC TECHNOLOGY. *Theoretical & Applied Science*, (4), 240-243.
9. Zokirova, S. M., & Axmedova, D. O. (2021). WORKING WITH BORROWINGS GIVEN IN DICTIONARIES OF PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. *Theoretical & Applied Science*, (3), 275-278.
10. Zokirova, S. M., & Topvoldiyeva, Z.R. (2020). ABOUT BORROWINGS IN THE UZBEK LEXICON. *Theoretical & Applied Science*, (4), 701-705.
11. Бахтихон, К. (2017). МАКОН МА'НОСИНИ ИФОДАЛОВЧИ ЛЕКSEMALARINING LINGVISTIK MAYDON SIFATIDA O'RGANILISHI. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-2), 53-58.